



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko'chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28  
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil "6" mart

01-14615 - son

**Toshkent tibbiyat akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishining  
8-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«28» fevral 2024 yil

**Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymurodov**

Toshkent tibbiyat akademiyasi  
v.v.b rektori, professor

**Qatnashdilar:**

Toshkent tibbiyat akademiyasining  
Ilmiy kengashi a'zolari  
(ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

1. Akademiyada ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti faoliyati tahlili.

**Ma'ruzachi** – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Feruza Lutpillaevna Azizova.

2. Malaka oshirish fakulteti hisoboti.

**Ma'ruzachi** – Malaka oshirish fakulteti dekani Nurillayeva Nargiza Muxtarxonovna.

3. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma'ruzachi** – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi** – O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

## **QAROR QILADI:**

1.Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Akademiyada ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti faoliyati tahlili” mavzusi bo‘yicha Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Feruza Lutpillayevna Azizovaning ma’lumoti qoniqarli deb hisoblansin hamda axborot va ijo uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1.Akademiyada dissertatsiya himoyalarini amalga oshirishda tayanch doktorantura va doktorantura institutlariga o‘qishga qabul kilishda shet tillarni bilish bo‘yicha sertifikatga ega bo‘lish maqsadida muntazam ravishda tayyorgarlik ko‘rib borilishi ta’mnlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakulteti dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.2. Akademiya professor-o‘qituvchilarini, shuningdek doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti talabalarini xorijiy tillarni o‘rganishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqilishi maqsadida tashkil etilgan “Til o‘rgatish markazi” ga jalb etilishi kuchaytirilsin hamda barcha fakultetlar kafedralarida, jumladan bakalavriat talabalarini xorijiy tillarni o‘rganishga yo‘naltirilishi, milliy va xorijiy sertifikatga ega bo‘lishi, keyinchalik magistratura yo‘nalishlariga kirishi bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borilishi ta’mnlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.3. Barcha fakultet kafedralari tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grant-loyhalari tanlovlari faol qatnashishlari hamda xo‘jalik shartnomalar bo‘yicha ishlar olib borilishi ta’mnlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.4. Barcha fakultet kafedralarida ilmiy-tadqiqot ishlarni yuqori sifatda olib borilishi maqsadida Akademianing “Biotibbiyot markazi” laboratoriylari bilan hamkorlik ishlari kuchaytirilishi, loyihalar bajarilishi uchun kerakli asbob-uskuna va reaktivlar bo‘yicha buyurtmalar berilishi ta’mnlansin, shuningdek, yangi laboratoriylar tashkil etilishi bo‘yicha takliflar kiritilsin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, “Biotibbiyot markazi” laboratoriysi rahbari A.A.Abdullayev, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.5. Akademiyada ta’lim olayotgan doktorant va mustaqil izlanuvchilarining o‘z muddatida himoya qilishlari uchun xisobotlarni yilning har chorakida fakultet kengashlarida tahlili o‘tkazilishi, ularning natijasiga ko‘ra taaluqli xulosalar hamda zarur bo‘lgan moddiy yordam ko‘rsatilishi bo‘yicha takliflar berilishi ta’mnlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.6. Akademiya professor-o‘qituvchilarini ilmiy unvonlarini o‘z vaqtida olishini ta’minalash maqsadida dotsent, professor lavozimlarga o‘tkazilishida OAK tomonidan qo‘ylgan mezonlarni inobatga olinishi ta’mnlansin. 2 yil muddatda unvonlarni olmagan professor-o‘qituvchilar oldingi lavozimlariga qaytarilsin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, kadrlar bo‘limi boshlig‘i N.Ismatullayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.7. Akademianining ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy darajasi bo‘lmagan professor-o‘qituvchilarining dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ularni mustaqil izlanuvchilik institutlariga kirishi to‘liq ta’mnlansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.8. Akademiya professor-o‘qituvchilari, shuningdek doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti izlanuvchilari tomonidan Scopus bazasida chop etiladigan maqolalar soni va sifatini oshirish bo‘yicha ishlar kuchaytirilsin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.9. Doktorantura va mustaqil izlanuvchilarining mavzularini tanlash va Akademiya Ilmiy kengashiga tasdiqlash uchun olib chiqishda ilmiy rahbar, Muammoli ha’atlar raislari va a’zolarining javobgarligi ta’kidlab o‘tilsin va nazoratga olinsin, dissertasiya mavzulari tibbiyotning hozirgi kundagi dolzarb muammolariga bag‘ishlanishiga alohida e’tibor qaratilsin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Muammoli ha’at raislari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.10. Barcha fakultet kafedralarining ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida har bir xodimning ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishini monitoringi va nazorat qilinishi kuchaytirilsin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i R.Turakulov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

1.11. Akademianing iqtidorli talabalarini saralash maqsadida ularni fanlar kesimida mahalliy va xorijiy olimpiada va konferentsiyalarda ishtirokini ta’minalash, nufuzli o‘rinlarni egallashda hamda nomdor stipendiyalarga nomzodlarni tayyorlashda ishlar davom etilishi va kuchaytirilishi ta’minalansin.

**Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “Malaka oshirish fakulteti hisoboti” mavzusi bo‘yicha Malaka oshirish fakulteti dekani Nurillayeva Nargiza Muxtarxanovnaning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

2.1. Malaka oshirish kurslardagi mavzular zamonaviy tibbiyot muammolariga bag‘ishlangan bo‘lishi, qayta ko‘rib chiqilishi va bu borada ishlar faol olib borilishi, shuningdek, hamshiralarni uchun hamda sog‘liqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish bo‘yicha 36 soatli, 72 soatli va 144 soatdan yuqori bo‘lgan malaka oshirish kurslarni ochilishi ta’minalansin.

**Ma’sul: Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillaeva, barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

2.2. Har bir malaka oshirish kursiga teletibbiyot usullarini kiritilishi va MOODLE tizimiga barcha o‘quv materiallari joylashtirilishi ta’minalansin.

**Ma’sul: Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillaeva, Raqamlashtirish markazi rahbari A.K.Musoxonov, barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

2.3. Barcha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan malaka oshirish kurslari uchun o‘quv qo‘llanmalar, ko‘rsatmalar va boshqa ilmiy va o‘quv mahsulotlar yangilanishi hamda ko‘paytirilishi ta’minalansin.

**Ma’sul: Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillaeva, barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

2.4. Malaka oshirish kursantlarini ehtiyojidan kelib chiqqan holda Simulyatsion markazda amaliy darslarni tashkillashtirilishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi ta’minalansin.

**Ma’sul: Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillaeva, Klinik modellashtirish kafedrasи mudiri D.A.Parpiboeva, barcha kafedra mudirlari va malaka oshirish kurslarni olib boradigan professor o‘qituvchilar.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili davomida.**

2.5.Malaka oshirish kurslaridan o‘tmagan va 3 yildan ko‘p malaka oshirmagan professor-o‘qituvchilar joriy yilning aprel-may oylarida tashkillashtiriladigan masofaviy kurslarga qayta tayyorlanishi va malaka oshirish kurslarida yo‘nalishi bo‘yicha shartnoma asosida ishtiroki ta’minlansin.

**Ma’sul: Malaka oshirish fakulteti dekani N.M.Nurillaeva, kadrlar bo‘limi boshlig‘i N.Ismatullaeva, Yuriskonsult S.M.Yusupova, barcha kafedra mudirlari va vaqtida malaka oshirmagan professor- o‘qituvchilar.**

**Muddat: 2024- o‘quv yili aprel-may oyilari.**

2.6.Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari yakunida attestasiyadan takroran o‘tmagan pedagog-kadrlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi qonunchilikda belgilangan tartibga qat’iy amal qilgan holda rasmiylashtirilsin.

**Ma’sul: Kadrlar bo‘limi boshlig‘i N.Ismatullaeva, Yuriskonsult S.M.Yusupova, barcha kafedra mudirlari va vaqtida malaka oshirmagan professor- o‘qituvchilar.**

**Muddat: 2024- o‘quv yili iyun oyi.**

3.Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova so‘zga chiqib, allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik kafedrasi mudiri lavozimiga-**Razikova Ilmira Sadulayevna**, histologiya va tibbiy biologiya kafedrasi mudiri lavozimiga - **Azizova Feruza Xusanovna**, anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasi mudiri lavozimiga-Ibragimov Nematjon Komiljonovich, gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi mudiri lavozimiga-Saidov A’lonur Baxtinurovich, mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi mudiri lavozimiga-Nuruzova Zuxra Abduqodirovna, epidemiologiya kafedrasi mudiri lavozimiga -Matnazarova Gulbaxor Sultanovna, dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi mudiri lavozimiga - **Tashkenbaeva Umida Alisherovna**-kafedra mudiri lavozimlariga nomzodlar hamda kuyidagilar: **Tuhtayeva Nigora Xasanovna**, 2-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori, 14.00.05 – ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha, **Muminova Maxbuba Teshaevna**, Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi, 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha, **Alimuxamedov Dilshod Shavkatovich**, Bolalar, o‘smyrlar va ovqatlanish gigienasi kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori, 14.00.07 – Gigiena ixtisosligi bo‘yicha, **Bekenova Gulchexra Tulegen qizi**, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi, 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha, **Ataniyazov Maxsudjan Kamaladdinovich**, Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi, 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo‘yicha - dotsent ilmiy unvoniga talabgorlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So‘ng saylov o’tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4.Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar

tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2-va 3-lovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5.Turli masalalar bo‘yicha O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlari bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.Goipov so‘zga chiqdilar.

5.1.Toshkent tibbiyat akademiyasida ta’sis etilgan “**Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi**” uchun 2024-yil fevral oyida o‘tkazilgan tanlov yakuniga ko‘ra g‘olib bo‘lgan quyidagi talabalarga:

- 1-son davolash fakulteti 501-guruhi talabasi **Sherbekova Diyora Ulug‘bek qizi**;
- 2-son davolash fakulteti, 401-guruh **Bobonazarova Malika Nurbek qizi**;
- Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti, 201-guruh talabasi **Mustafaqulova Nilufar Elmurod qizi**;
- Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit gigienasi va kimyo fakulteti, 206- guruh talabasi **Abduraxmonova Namuna Nomozboy qizi**;
- Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyat muhandisligi va oliv ma’lumotli hamshira fakulteti, Tibbiy biologiya yo‘nalishi, 301-guruh talabasi **Dadayeva Dildora Ixtiyor qiziga** 2024-yil sentabr oyidan boshlab 2025-yil 30-iyunga qadar Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori 2-ilovasining 2-bandiga muvofiq maxsus stipendiya to‘lanishi ta’mnlansin.

5.2.Toshkent tibbiyat akademiyasining “**Zulfiya nomidagi ko‘krak nishoni**” uchun 2024-yil fevral oyida o‘tkazilgan tanlov yakuniga ko‘ra g‘olib bo‘lgan quyidagi talabalarga:

- 2-son davolash fakulteti 409-guruh talabasi **Raxmonova Umida Toxir qizi**;
- Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti, 402-guruh talabasi **G‘ofurova Gavxar Botir qizi**;
- Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit gigiyenasi va kimyo fakulteti, 201- guruh talabasi **Tosheva Shoxida Himmamatovna**;
- Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyat muhandisligi va oliv ma’lumotli hamshira fakulteti, Tibbiy biologiya yo‘nalishi , 303- guruh talabasi **Xolboyeva Dilro‘zbegin O‘rol qiziga** TTAning Zulfiya nomidagi ko‘krak nishoni va guvohnomasi topshirilsin va bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir marta to‘lanadigan pul mukofoti bilan taqdirlanishi ta’mnlansin.

**Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.G‘oipov, Bosh hisobchi B.I.Alijanova.**

**Muddat: 2023/2024 o‘quv yili mart oyi va 2024/2025 o‘quv yili davomida.**

5.3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari, Hukumat qarorlari va topshiriqlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash hamda Akademiyadagi raqamlashtirish jarayonlari jadallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini takomillashtirish, axborot

xavfsizligini ta'minlash maqsadida litsenziyalangan dasturiy va texnik vositalar, xizmatlarni xarid qilish, shuningdek, sohaga mas'ul rahbar va xodimlarning malakasini oshirish bilan bogliq xarajatlarni Akademianing 2024-yil xarajatlar smetasida inobatga olinishini ta'minlasin; Akademianing Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi malakali mutaxassislar bilan ta'minlansin hamda ularga yuqori oylik maosh va munosib rag'batlantirish mexanizmlarini yolga qo'yish bo'yicha asoslangan takliflar kiritilsin; har chorak yakuni bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-yanvardagi 6-son buyrugida belgilangan vazifalar ijrosi hamda raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan vazirlikka ma'lumot taqdim etib borilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, barcha prorektorlar, barcha bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2024- o'quv yili davomida.**

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**

Ijrochi: G.Ismailova  
ID: 537968  
Sana: 06.03.2024